



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....   | 10 |
| <b>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</b>  |    |
| Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish .....          | 15 |
| <b>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</b>   |    |
| Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli .....  | 19 |
| <b>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</b>   |    |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....   | 23 |
| <b>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</b>   |    |
| Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....                                     | 28 |
| <b>Gulmira Jumanova</b>   |    |
| Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....  | 33 |
| <b>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</b>  |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi .....  | 37 |
| <b>Davlatova Zebo Haydarovna</b>  |    |
| Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....  | 40 |
| <b>Ochilova Farida Baxriddinovna</b>  |    |
| Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari .....   | 44 |
| <b>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</b>  |    |
| Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....  | 48 |
| <b>Sevara Mamatkarimova</b>   |    |
| Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....  | 53 |
| <b>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</b>   |    |
| Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....  | 56 |
| <b>Курбанова Шаира Исмаиловна</b>   |    |
| Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...  | 60 |
| <b>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</b>  |    |
| Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari .....  | 63 |
| <b>Muminova Feruza Farxodovna</b>   |    |
| Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati .....  | 70 |
| <b>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</b>   |    |
| Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....   | 74 |
| <b>Saidova Dilnoza Maripovna</b>  |    |
| К вопросу о классификации современной антиутопии.....   | 78 |
| <b>Дмитрий Валерьевич Пупонин</b>   |    |
| Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям .....   | 82 |
| <b>Муксинова Динора Азаматовна</b>  |    |
| Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti ..... | 87 |
| <b>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</b>  |    |
| Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar .....   | 92 |
| <b>Berkinova Charos Islomovna</b>   |    |



|  |     |
|--|-----|
| Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....   | 96  |
| <b>N. R. Masharipova</b>   |     |
| Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....  | 99  |
| <b>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</b>   |     |
| The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....   | 106 |
| <b>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</b>   |     |
| Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....   | 110 |
| <b>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</b>   |     |
| Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari..... | 113 |
| <b>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</b>   |     |
| Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari .....  | 119 |
| <b>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</b>  |     |
| Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi .....   | 124 |
| <b>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</b>   |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi .....   | 127 |
| <b>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</b>   |     |
| Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....  | 130 |
| <b>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</b>   |     |
| Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari .....  | 134 |
| <b>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</b>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....  | 138 |
| <b>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</b>  |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli .....  | 142 |
| <b>Rasulova Umida Bahodir qizi</b>   |     |
| Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....  | 146 |
| <b>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</b>  |     |
| Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..   | 149 |
| <b>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</b>   |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....  | 152 |
| <b>Lukmonova Salomat Gafurovna</b>   |     |
| Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari .....  | 157 |
| <b>Farmonova Madina Bahriddin qizi</b>   |     |
| Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi .....   | 161 |
| <b>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</b>  |     |
| Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....   | 167 |
| <b>Choriyeva Xurmo Panji qizi</b>  |     |
| Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....  | 172 |
| <b>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</b>   |     |
| Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..  | 177 |
| <b>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</b>  |     |
| STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish .....  | 181 |
| <b>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</b>  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....  | 188 |
| <b>Axmad Bolqiyev</b>  |     |

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

|   |     |
|---|-----|
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....   | 191 |
| <a href="#">Shavqiddin Burxonov</a>   |     |
| Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....   | 194 |
| <a href="#">Pardaboyev Doston</a>   |     |
| Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....  | 197 |
| <a href="#">Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</a>  |     |
| Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине<br>“Практикум литературы народов СНГ”.....                     | 199 |
| <a href="#">Татьяна Викторовна Половинкина</a>  |     |
| Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....   | 204 |
| <a href="#">Shermatova Mokhira Baxodir qizi</a>   |     |
| Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....  | 209 |
| <a href="#">Musharafxon Sultanova</a>   |     |
| Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....  | 213 |
| <a href="#">Ziyotova Madina</a>   |     |
| Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi .....  | 216 |
| <a href="#">Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</a>   |     |
| Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining<br>mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....  | 220 |
| <a href="#">Yusupova Latofat Nuriddinovna</a>   |     |
| Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning<br>innovatsion texnologiyalari .....                       | 228 |
| <a href="#">Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</a>   |     |
| Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati .....  | 233 |
| <a href="#">Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</a>  |     |
| Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali<br>ekologik madaniyatni rivojlantirish .....                          | 239 |
| <a href="#">Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</a>   |     |
| Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri:<br>o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031) ..... | 245 |
| <a href="#">Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</a>                                   |     |
| Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini<br>boshqarish samaradorligini oshirish .....                         | 251 |
| <a href="#">Eryigitov Dilshod Xolboyevich</a>   |     |
| Enhancing Speaking Skills Productively in English .....   | 255 |
| <a href="#">J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</a>   |     |
| Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....   | 259 |
| <a href="#">Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</a>   |     |
| 2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil .....   | 263 |
| <a href="#">Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</a>  |     |
| Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining<br>psixologik xususiyatlari .....                                   | 267 |
| <a href="#">Kuvandikova Gulnora Gulamovna</a>   |     |
| Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....   | 270 |
| <a href="#">Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</a>   |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy<br>psixologik-pedagogik yondashuv.....                                    | 274 |
| <a href="#">Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</a>  |     |
| Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....   | 279 |
| <a href="#">Rajabova Go'zal Zarifovna</a>   |     |
| Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....  | 283 |
| <a href="#">Sitara Elova Axmatkulovna</a>   |     |



|  |     |
|--|-----|
| Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....  | 287 |
| <b>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</b>   |     |
| Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....         | 290 |
| <b>Xakimov Xurshid Nozimovich</b>  |     |
| Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....   | 294 |
| <b>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</b>  |     |
| Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari..... | 298 |
| <b>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</b>  |     |
| Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....  | 301 |
| <b>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</b>   |     |
| Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....  | 304 |
| <b>Tangirov A. J.</b>  |     |

# BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MUTAXASSIS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA XAVOTIRLANISH HOLATINING NAMOYON BO'LISHI

Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak pedagoqlarning kasbiy shakllanish jarayonida xavotirlanish holatining namoyon bo'lish xususiyatlari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda xavotirlanish hodisasining psixologik mohiyati, uning kasbiy faoliyatga ko'rsatadigan ta'siri, shuningdek, bo'lajak pedagoqlarda uchraydigan xavotir turlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak pedagog, kasbiy shakllanish, xavotirlanish, vaziyat bilan bog'liq xavotir, shaxsiy xavotir, psixologik salomatlik, o'qituvchi shaxsi, kasbiy o'zlikni anglash, emotsional barqarorlik, talabalik davri.

**Abstract:** This article analyzes the characteristics of anxiety manifestation in the process of professional development of future teachers from a scientific and theoretical perspective. The study explores the psychological nature of anxiety, its impact on professional activity, and identifies the types of anxiety observed in future teachers as well as the factors contributing to their occurrence.

**Key words:** future teacher, professional development, anxiety, situational anxiety, trait anxiety, psychological well-being, teacher personality, professional identity, emotional stability, student period.

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются особенности проявления тревожности в процессе профессионального становления будущих педагогов. В исследовании раскрывается психологическая сущность тревожности, её влияние на профессиональную деятельность, а также рассматриваются виды тревожности, характерные для будущих педагогов, и факторы, их обуславливающие.

**Ключевые слова:** будущий педагог, профессиональное становление, тревожность, ситуативная тревожность, личностная тревожность, психологическое здоровье, личность учителя, профессиональная идентичность, эмоциональная устойчивость, студенческий период.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablarning yildan-yilga oshib borishi, uning kasbiy mahoratiga emas, balki ruhiy-emotsional barqarorligiga ham bevosita aloqadorlik kasb etmoqda. Ushbu jarayonda yosh shaxs ko'plab psixologik o'zgarishlarni boshidan kechiradi va ularning ichida xavotirlanish holati alohida o'rin tutadi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ko'p qatlamli, ijtimoiy mas'uliyatli va emotsional jihatdan zo'riqishga boy soha hisoblanadi. Talaba shu sohada o'zini sinab ko'rar ekan, kelajakdagi vazifalari, jamoa oldida nutq so'zlash, dars o'tish, baholanish kabi vaziyatlar uning ichki tashvishlariga sabab bo'ladi. Bunday kechinmalar ba'zan rivojlantiruvchi kuch, ba'zan esa shaxsni cheklovchi to'siq sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli xavotirning bo'lajak pedagog shaxsidagi ta'siri va uni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xavotirlanish holatini muvaffaqiyatli boshqarilishi talabaning kasbiy o'zlikni anglashi, motivatsion sohasining mustahkamlanishi va psixologik salomatligining barqarorligini ta'minlaydi. Aksincha, bu holatning surunkali tus olishi shaxsda emotsional charchoq, ishonchsizlik va kasbiy faoliyatdan voz kechish kabi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xavotirlanish hodisasi psixologiya fanida uzoq yillardan beri turli yo'nalishlardagi olimlar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Z.Freyd ushbu holatni shaxs ichidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishi natijasida hosil bo'ladigan hissiy javob sifatida talqin qilgan bo'lsa <sup>[7, 363]</sup>, K.Xorni xavotirni shaxsning ijtimoiy munosabatlarida boshidan kechiradigan ishonchsizlik tuyg'usi deb ta'riflaydi. <sup>[6, 257]</sup>



Yana bir taniqli tadqiqotchi K.Izard xavotirni asosiy emotsiyalar majmuasi sifatida ko'rib chiqib, uning qo'rquv, ayb va sharm hissi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatib bergan.

Ch.Spilberger esa xavotir hodisasini ikki asosiy ko'rinishga ajratib o'rganishni taklif etadi. [2, 12-24]

*Birinchi* - vaziyatli xavotir bo'lib, u muayyan vaqt va sharoitga bog'liq holda yuzaga keladigan o'tkinchi kechinmadir.

*Ikkinchi* - shaxsiy xavotir bo'lib, u shaxsning barqaror xususiyati sifatida turli vaziyatlarda takrorlanib turuvchi xususiyatga ega.

Sobiq ittifoq psixologiyasida A.M.Prixojan, N.D.Levitov, V.M.Astapov kabi olimlarning ishlari xavotirning bolalik va o'smirlik davrlaridagi xususiyatlariga bag'ishlangan.

A.M.Prixojanning tadqiqotlari, xususan, xavotirni shaxs barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim psixologik xususiyat sifatida talqin qiladi. [1, 12]

O'zbek olimlari E.G'oziyev, V.Karimova, B.Qodirov, Z.Nishonova, G'.Shoumarov va boshqalarning ilmiy ishlarida xavotirning ta'lim jarayonidagi ko'rinishlari, uning bola va talaba shaxsiga ta'siri batafsil yoritilgan. [3, 288]

Shu bilan birga, bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishi davridagi xavotir kechinmalarini yaxlit tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hozirgi kunda yetarli darajada taqdim etilmagan. Mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish bugungi pedagogik psixologiya oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xavotirlanish - bu shaxsning kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan noaniq, xavfli yoki noxush hodisalar oldida his qiladigan ichki notinchlik holatidir. Bu kechinma qo'rquvdan farqli o'laroq, aniq bir ob'ektga emas, balki noaniqlikka qaratilgan bo'ladi. Ya'ni inson nimadan qo'rqayotganini aniq belgilab ololmasa-da, ichki ruhiy zo'riqishni his qiladi. Xavotir holati o'zida bir necha tarkibiy qismlarni mujassam etadi: kognitiv (fikriy), emotsional (hissiy), fiziologik (jismoniy) va xulq-atvor jihatlari. [9, 131]

Kognitiv jihatdan xavotirlanish kelajakni qora bo'yoqlarda tasavvur qilish, o'z imkoniyatlariga shubha bilan qarash, salbiy stsenariylarni xayolda takror-takror qayta ishlash bilan tavsiflanadi. Emotsional jihat - bezovtalik, asabiylashish, kayfiyatning beqarorligi tarzida namoyon bo'ladi. Fiziologik darajada esa yurak urishining tezlashishi, nafas olishning og'irlashishi, mushaklarning tarangligi, terlash, uyqusizlik kabi alomatlar kuzatiladi. Xulq-atvor darajasida shaxs muloqotdan qochish, vazifalarni keyinga surish, ishlash unumdorligining pasayishi kabi belgilar bilan o'zini namoyon qiladi.

Mutaxassislar xavotirning o'rtacha darajasi shaxsning faoliyatga safarbar bo'lishiga, diqqatini jamlashiga va mas'uliyat hissini his etishiga yordam berishini ta'kidlaydilar. Biroq uning haddan ortiq kuchayishi yoki, aksincha, mutlaqo yo'qligi salbiy oqibatlarga olib keladi. Yerks-Dodson qonuni [12, 158] nuqtai nazaridan qaraganda, faoliyat samaradorligi va xavotir darajasi o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud: xavotirning o'rtacha ko'rsatkichlari faoliyat unumdorligini oshiradi, juda past yoki juda yuqori darajalari esa uni pasaytiradi.

Talabalik davri shaxsning hayotidagi eng murakkab va ko'p qirrali bosqichlardan biri bo'lib, bu yillarda ham ijtimoiy, ham kasbiy, ham shaxsiy o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Bo'lajak pedagog uchun esa bu davr o'ziga xos jihatlarga ega, u nafaqat o'zining shaxsiy hayot dasturini tuzadi, balki kelajakda boshqa avlod tarbiyasi uchun mas'uliyat oluvchi mutaxassis bo'lib yetishishi lozim. Aynan shu mas'uliyat hissi va kasbiy talablarning katta hajmi yoshlarda turli ko'rinishdagi xavotir kechinmalarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

*Birinchi*dan, akademik vaziyatlarga bog'liq xavotir bo'lajak pedagoglar orasida eng ko'p uchraydigan turlardan biri hisoblanadi. Imtihonlar, sessiya davri, ochiq darslar, kurs ishlari himoyasi, ilmiy konferensiyalarda chiqishlar - bularning barchasi talabaning ichki holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu vaziyatlarda yuzaga keladigan kechinmalar ko'pincha vaziyatli xavotir doirasiga kiradi, ya'ni vaziyat tugagach kuchsizlanadi. Lekin ba'zi talabalarda u barqaror xususiyatga aylanib, har qanday baholash holatida takrorlanib turadi.

*Ikkinchi*dan, pedagogik amaliyot davrida yuzaga keladigan xavotir alohida e'tibor talab etadigan holatdir. Talaba ilk bor o'quvchilar oldiga chiqib dars o'tar ekan, uning ichida ko'plab savollar va shubhalar paydo bo'ladi:

1. "Mavzuni to'g'ri tushuntira olamanmi?",
2. "O'quvchilar meni ustimdan kulishmasmikan?",
3. "Tajribali pedagoglar nazoratiga uchragan vaqtimda xato qilib qo'ymasmikan?"

Bunday savollar tabiiy bo'lib, ular ko'pincha tajriba orttirilgan sayin yumshay boradi. Biroq dastlabki noxush kechinmalar ba'zi talabalarda kasb tanlovining to'g'ri ekanligiga shubha tug'dirishigacha olib boradi.

*Uchinchidan*, kasbiy istiqbol bilan bog'liq xavotir keyingi kurs talabalarida kuchayib boradi. Ular o'qishni tugatgach qayerda ishlashlari, oilani moddiy jihatdan ta'minlay olishlari, kasbda o'zlarini namoyon eta olishlari haqida ko'p o'ylay boshlaydilar. Iqtisodiy ahvol, ish o'rinlarining cheklanganligi, pedagoglik kasbining ijtimoiy mavqei haqidagi turli fikrlar yosh shaxsda ichki notinchlikni kuchaytirishi mumkin.

*To'rtinchidan*, shaxslararo munosabatlardagi xavotir ham bo'lajak pedagog uchun ahamiyatli omildir. Guruhdoshlar, o'qituvchilar, oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlardagi muvaffaqiyatsizliklar, kelishmovchiliklar shaxsga emotsional zo'riqish keltirib chiqaradi. Ayniqsa, pedagog asosan muloqotga asoslangan kasbga tayyorlanayotgani sababli, bu sohadagi qiyinchiliklar uning kasbiy o'zlikni anglashiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Talaba-pedagoglar shaxsidagi xavotirning shakllanishi va kuchayishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni shartli ravishda ichki va tashqi guruhlariga ajratish mumkin. Ichki omillar shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, asab tizimining tipi, o'zlikni baholash darajasi, shaxsiy tajribasi va boshidan kechirgan psixologik vaziyatlari bilan bog'liq. Tashqi omillar esa o'qish muhiti, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, axborot oqimining tabiati hamda ta'lim tizimining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Ichki omillar orasida o'zlikni past baholash xavotirning eng kuchli muqobillaridan biri sanaladi. O'z imkoniyatlariga ishonchi sust bo'lgan talaba har qanday baholash holatida o'zini muvaffaqiyatsizlikka mahkum his qiladi. U boshqalar bilan o'zini taqqoslab, doimo "meniki yetarli emas" degan xulosaga keladi. Bu fikrlash uslubi vaqt o'tishi bilan barqarorlashib, shaxsiy xavotir darajasini oshiradi. Shuningdek, mukammallikka intilish darajasining haddan ortiqligi ham xavotirni kuchaytiruvchi ichki omillar sirasiga kiradi: barchani mamnun qilishga, har doim a'lo natija ko'rsatishga intilish shaxsda surunkali zo'riqishni keltirib chiqaradi.

Tashqi omillar orasida ta'lim muhitining sog'lomligi alohida ahamiyatga ega. Agar talaba professor-o'qituvchilar bilan ishonchli, ochiq munosabatda bo'lsa, o'z muammolarini bemaol o'rtoqlasha olsa, uning xavotir darajasi sezilarli darajada kamayadi. Aksincha, tortishuvli, bahsli, hurmatsizlikka asoslangan munosabatlar shaxsda doimiy ichki notinchlikni kuchaytiradi. Oilaviy muhit ham muhim rol o'ynaydi: ota-onalarning haddan ortiq talabchanligi yoki, aksincha, befarqligi yosh shaxsda muvozanatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning ahamiyatini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Stipendiya miqdorining cheklanganligi, ijara haqi, transport xarajatlari va boshqa moddiy yuklamalar talabani moddiy tashvishlarga botiradi. Bu tashvishlar esa o'qish jarayoniga to'liq berilish imkonini cheklaydi va tabiiyki, xavotir darajasini oshiradi. Zamonaviy axborot makonidagi salbiy yangiliklar oqimi, ijtimoiy tarmoqlardagi taqqoslashlar va ko'rsatma-misol bo'lgan muvaffaqiyatlilarning ortdirilgan qiyofasi ham yosh shaxsning ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xavotir hodisasining bo'lajak pedagog shaxsiga ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: konstruktiv va destruktiv. Konstruktiv yo'nalishda xavotir shaxsni harakatga safarbar etadi, mas'uliyat hissini oshiradi, tayyorlikni puxtarok olib borishga undaydi. Talaba imtihondan oldin tashvishlanishi tabiiy hodisa bo'lib, bu unga jiddiyroq tayyorlanish, mavzularni qayta ko'rib chiqish, materiallarni tizimlashtirish uchun turtki beradi. Bunday vaziyatlarda xavotir o'ziga xos motivator vazifasini bajaradi.

Destruktiv yo'nalishda esa xavotir shaxsning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Yuqori darajadagi xavotir tafakkurning egiluvchanligini pasaytiradi, xotira jarayonlarini buzadi, diqqatni jamlashga to'sqinlik qiladi. Imtixon paytida ko'p marta o'qib, mukammal o'rgangan materialini eslay olmay qoladigan talabalar - bu hodisaning yaqqol misolidir. Bunday vaziyatlarda shaxs o'z bilimlarini to'liq namoyon eta olmaydi va natija haqiqiy salohiyatini aks ettirmaydi.

Bo'lajak pedagog shaxsidagi surunkali xavotir uning kasbiy o'zlikni anglash jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Men kelajakda yaxshi pedagog bo'la olamanmi?" degan savol javobsiz qolaversa, talabada kasbga nisbatan ishonchsizlik shakllanadi. Bu esa uning amaliy darslarga befarqligi, o'qish davomiyligini pasaytirishi va hatto o'qishni tashlab ketish niyatini paydo bo'lishigacha olib borishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarini bitirgan pedagogik yo'nalish talabalarining bir qismi maktabga ishga bormaslik holati aynan shu omilning oqibatlaridan biridir.

Surunkali xavotirning yana bir muhim oqibati - emotsional charchoqning erta yuzaga kelishidir. Hali kasbiy faoliyatga to'liq kirishmagan talaba allaqachon ichki resurslarining tugayotganini his qila boshlaydi. Bu hol kelajakda professional emotsional yonish (burnout) sindromining tez rivojlanishiga zamin yaratadi. Pedagogik kasbning o'ziga xos emotsional yuklamalari, o'quvchilarning xilma-xilligi va ota-onalar bilan ishlash zarurati hisobga olinsa, hali talabalik davridanoq ruhiy resurslar tugab borayotgan bo'lajak pedagog kasbiy faoliyatda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishi muqarrar.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanish jarayonida xavotirlanish holati ko'p qirrali va ahamiyatli psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. U bir tomondan shaxsni rivojlanishga undovchi turtki, ikkinchi tomondan esa ichki resurslarni cheklovchi to'siq vazifasini bajarishi mumkin. Talabanning qaysi yo'nalishni tutib ketishi ko'p jihatdan uning shaxsiy xususiyatlari, atrofidagi muhit va ta'lim tizimida qo'llaniladigan psixologik-pedagogik yondashuvlarga bog'liqdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak pedagoglarning xavotir darajasini optimal holatda ushlab turish ularning kasbiy shakllanishi muvaffaqiyatining muhim shartlaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishga oliy ta'lim muassasasi, professor-o'qituvchilar, oila va talabanning o'zi birgalikda mas'ul yondashishi natijasidagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Прихожан А.М. Тревожность у детей и подростков: психологическая природа и возрастная динамика. - Москва: МПСИ, 2000. - 304 с.
2. Спилбергер Ч.Д. Концептуальные и методологические проблемы исследования тревоги // Стресс и тревога в спорте. - Москва: Физкультура и спорт, 1983. - С. 12-24.
3. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. - Toshkent: Tafakkur, 2018. - 320 b.
4. Shoumarov G'.B. Pedagogik psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2013. - 264 b.
5. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. - Toshkent: Fan, 2015. - 186 b.
6. Хорни К. Невротическая личность нашего времени. - Москва: Прогресс, 1993. - 480 с.
7. Изард К.Э. Психология эмоций. - СПб.: Питер, 2008. - 464 с.
8. Левитов Н.Д. Психическое состояние беспокойства, тревоги // Вопросы психологии. - 1969. - № 1. - С. 131-137.
9. Beck A.T. Cognitive therapy and the emotional disorders. - New York: International Universities Press, 1976. - 356 p.
10. Ellis A. Reason and Emotion in Psychotherapy. - New York: Lyle Stuart, 1962. - 442 p.
11. Spielberger C.D. Anxiety: Current trends in theory and research. - New York: Academic Press, 1972. - 480 p.
12. Хухлаева О.В. Основы психологического здоровья. - Москва: Академия, 2017. - 216 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.